

“Ўзкимёсаноат” АЖ – Ёшлар билан ишлашда энг намунали 30 ташкилотдан бири!

// 30.06.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/uz/press/news/uzkimyosanoat-azh-yoshlar-bilan-ishlashda-eng-namunali-30-ta>



O'zbekiston Respublikasi vazirlik, idora va tashkilotlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha MASLAHATCHILARI



AKBARXON SOBIRXONOV
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi



RASUL ESHANKULOV
"O'zbekiston temir yo'li" AJ



NE'MATJON ATAMURATOV
Kadastr agentligi



FARRUX YUNUSOV
Madaniyat vazirligi



ABDULAZIZ ZAYNUTDINOV
Energetika vazirligi



ANAXON XAMDAMOV
Adliya vazirligi



RAVSHANBEK XURSANOV
Sport vazirligi



ABBOJON SAMATOV
Transport vazirligi



SAYYIDILXOM SAYDULLAYEV
Bosh prokuratura



MIRSHAVKAT MIRSOATOV
"Uzbekistan Airports" AJ



ELYOR IKRAMOV
Markaziy bank



UMID VALIYEV
Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki



ABDULAZIZ ORIFJONOV
"O'zsaodatqurilishbank" ATB



SARDORBEK ABDUSAMATOV
Mudofaa vazirligi



BOBOMUROD XAYRULLAYEV
"Uzbekistan Airways" AJ



SHAXZODA BAYMURZAYEVA
"To'shshahartransizmat" AJ



YUSUPJON YUSUPOV
Ichki ishlar vazirligi



MIRSAID MIRAXMEDOV
Osimliklar korantini va himoyasi agentligi



GULNOZA XUSANOVA
"Xolq banki" ATB



ABROR MELIXOJAYEV
Milliy gvardiya



SANJAR RADJABOV
"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ



DILMUROD YUSUPOV
"O'zarsiv" agentligi



AKRAMJON TO'LQINOV
"O'zbekgidroenergo" AJ



ZUXRIDDIN XOJIMURODOV
"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ



ABBAS TOJIYEV
"Hududgizlamino" AJ



AZAMAT MAVLANOV
"Olmaliq kon metallurgiya kombinati" AJ



FARRUXJON ABDURAXMANOV
Favqulodda vaziyatlar vazirligi



DAVRON ABDURAXMANOV
"O'zbekkoin" AJ



MUXAMMADBOBUR ABDURAZAKOV
"O'zкимёсаноат" AJ



ABDULAZIZ ZABIYEV
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi

Ёшлар сиёсатини самарали амалга ошириш, уларнинг салоҳияти ва ижтимоий фаоллигини рўйбга чиқариш борасида тизимли фаолият олиб бораётган "Ўзкимёсаноат" АЖ юртимизда ёшлар билан ишлашда илғор тажриба намоён этган ташкилотлар қаторидан ўрин олди.

Ёшлар ишлари агентлиги томонидан республика бўйича 150 дан ортиқ вазирлик ва идоралар орасидан танлаб олинган энг фаол "ТОП-30" ташкилот рўйхатига "Ўзкимёсаноат" АЖнинг ҳам эътироф этилиши - тизимда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш борасида берилган

юксак баҳо ҳисобланади.

Бугунги кунда жамият тизим корхоналарида ёшлар салоҳиятини қўллаб-қувватлаш, уларни инновацион, интеллектуал, спорт ва ижтимоий лойиҳаларга жалб этиш, рағбатлантириш ва малакасини ошириш бўйича кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Шунингдек, "Ўзкимёсаноат" АЖ Бошқаруви раисининг ёшлар масалалари бўйича маслаҳатчиси Муҳаммадбобур Абдуразаков ташаббус ва фаолияти ушбу ютуқларда муҳим ўрин тутиб, унинг ёшлар билан ишлашдаги намунали ёндашуви алоҳида эътироф этилди.

Ушбу эътироф — ёшлар сиёсатини тизимли асосда амалга ошириш, уларнинг имкониятларини кенгайтириш ва ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга қаратилган ишлар самараси ҳисобланади.

"Ўзкимёсаноат" АЖ Матбуот хизмати